

XORIJ OLIMLARINING OILA BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR HAQIDAGI TADQIQOTLARI

Mamatova Nazira Djurakulovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarkand davlat universiteti “Amaliy psixologiya” kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet el olimlarini nikoh-oila haqidagi fikrlari, oila mustahkamligiga ta'sir omillar, oilaning buzilish sabablarini o'rganish orqali oilani barqarorlashtirish, unda o'zaro ijobjiy munosabatlarni shakllantirish va oilaviy baxt istiqbollarini belgilash sohasidagi ilmiy qarashlari o'rganilgan, psixologik tahlil amalga oshirilgan va natijalar bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Nikoh-oila munosabatlari, nuklear oila, er-xotining bir-birini tushunishi, madaniyat, an'ana, g'oyaviy yetuklik, oilaviy baxt, bolalar tarbiyasi, farovon turmush, ehtiyoj, baholash, turmush tarzi, pateriarxal.

Аннотация: В данной статье исследуются представления зарубежных ученых о браке-семье, факторах, влияющих на прочность семьи, научные взгляды в области стабилизации семьи путем изучения причин распада семьи, формирования в ней взаимоположительных отношений и определения перспектив семейного счастья, проводится психологический анализ и вырабатываются выводы по результатам.

Ключевые слова: брачно-семейные отношения, ядерная семья, понимание супругами друг друга, культура, традиции, идеальная зрелость, семейное счастье, воспитание детей, благосостояние, потребность, оценка, образ жизни, патриархальный.

Abstract: This article examines the ideas of foreign scientists about marriage and family, factors affecting the strength of the family, scientific views in the field of family stabilization by studying the causes of family breakdown, the formation of mutually positive relationships in it and determining the prospects for family happiness, psychological analysis is carried out and conclusions are drawn based on the results.

Key words: marital and family relations, nuclear family, understanding by spouses of each other, culture, traditions, ideological maturity, family happiness, parenting, well-being, need, assessment, lifestyle, patriarchal.

KIRISH

Oilaning tarixiy shakllanishi tadqiq etgan Angliyalik tarixchi Lourens Stoun o'rta asrlar davridagi oilaviy hayot shaklining hozirgi zamon shakliga o'tishini ta'minlagan





tizimini yaratib, u XVI asrdan to XIX asrgacha davr oralig‘ida oila taraqqiyotining 300 yil davomida bosib o‘tgan 3 bosqichidagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatib berdi. Mazkur davrning dastlabki va undan keyingi bosqichida ham Stounning fikricha, ochiq qarindoshlik oilasi uning hukmron shakli hisoblangan, u nuklear oila bo‘lib, nisbatan cheklangan darajada o‘z xo‘jaligini yuritgan. Mahalliy jamoa bilan, o‘zining qarindoshlari bilan uzviy aloqaga kirishgan. Stounga ko‘ra, ihotalangan patriarchial oilalar asta-sekinlik bilan jamoadan ajralgan holda uyga bog‘langan nuklear oilalar tomonidan siqib chiqarildi. Bu oilaning muhim jihatlari uning a‘zolari o‘rtasidagi yaqin emotSIONal munosabat, undagi munosabatlarning o‘ta o‘ziga xosligi va bola shakllanishiga e’tiborning yuqoriligi bilan farqlanadi. Bunday uyushgan oila tipi hozirgacha saqlanib qolgan. Jamoadan ajralgan holda uyga bog‘langan nuklear oilalarning paydo bo‘lishi bilan emotSIONal individualizmning, ya’ni emotSIONal va romantik muhabbat tartiblarini belgilovchi tanlovga ko‘ra nikohga kirishning qadri ortdi. Nikoh va oilaning g‘arbona tipi shunday qiyofaga ega bo‘ldiki, bu umumiy holda hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qtGANI yo‘q.

Biroq keyingi davrda (aniqrog‘i XX asrning 50-yillaridan boshlab) insoniyat turmush tarzi bilan bog‘liq jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar natijasida odamlar ma’lumotlilik darajasining o‘sishi, ayollarning xalq xo‘jaligining turli sohalarida faol ishtirok etishi, mehnat faoliyati ta’sirida oila sharoitida erxotin munosabatlarining o‘zgarishi, o‘z navbatida, oila-nikoh munosabatlari xususiyatiga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazdi.

Oxir oqibatda bugungi kunga kelib nikoh odamlarning o‘z mulki va mavqeini keyingi avlodga o‘tkazish maqsadidagi sa‘i-harakatlari majmui bo‘lmay qoldi: ayollar iqtisodiy mustaqilligining ta’minlanishi bilan nikoh qachonlardir bo‘lganidek iqtisodiy sheriklik zaruriyatining natijasi hisoblanmay qoldi.

Farovonlikning umumiy o‘sishi ta’sirida, agar nikoh insonni qoniqtirmasa, u o‘z hayotini osongina boshqa yo‘lga qo‘yishi mumkin bo‘lib qoldi; Bundan tashqari, ajrashganlar endilikda o‘zlarida “isnod” tamg‘asini ko‘tarib yurmaydi, chunki ajralish o‘z hayot yo‘lini istaganidek qurish uchun qoniqish hissini vujudga keltiradigan omilga aylandi. Natijada oilaviy hayotda insoniyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyoti uchun zid bo‘lgan holatlar: tug‘ilishning kamayishi, ajralishlar sonining ko‘payishi, ajralishlar salbiy oqibatining kishilar hayotiga ta’sirchanligini ortib borishi, nikohsiz oilalarning ko‘payishi va boshqa qator salbiy hodisalar yuz bera boshladи. Shu tariqa oila turmush yuzaga kelayotgan muhim muammolar jahon ilmiy jamoatchiligi: sotsiologlar, demograflar, etnograflar, tarixchilar, huquqshunoslar, mediklar, pedagoglar va psixologlar e’tiborini o‘ziga tortdi. Oilaviy hayot muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy psixologiyada oilaviy hayot muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilishiga





qaramay, uning hali yetarli darajada o'rganilmagan tomonlari ham mavjud. Bular qatoriga oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ham kiradi.

Oilaviy hayot, nikoh va oila, undagi shaxslararo munosabatlar muammolari bo'yicha tadqiqot olib borgan uzoq va yaqin chet el psixologlarining ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularning izlanish yo'nalishini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin.

1.Oilaning buzilishiga olib keladigan sabablarni o'rganish orqali oilani mustahkamlash, undagi o'zaro munosabatlar barqarorligini ta'minlash va oilaviy baxt istiqbollarini belgilash sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari.

2.Baxtli va farovon oilalarni, ya'ni oiladagi baxt va farovonlikni ta'minlovchi oilaviy hayotga xos muhim omillarni o'rganish sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari.

Endi ana shu yo'nalishlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan chuqurroq tanishib, ularning tadqiqotimiz bilan bog'liq o'ziga xos tomonlari haqida mulohaza yuritamiz.

Bugungi kunda nikoh va oilada muhim o'zgarishlar yuz berayotganini rad etish qiyin. Bular kengroq ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida ifodalaydi.

Baxtli oila masalalari bilan shug'ullangan yetakchi sotsiolog va psixolog olimlar uning 11 ta eng muhim shart-sharoitlari mavjudligini aniqlaganlar:

1.Er-xotinning o'zaro bir-birini tushunishi. 2.Alovida uy-joyning mavjudligi. 3.Moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganlik. 4.Farzandlar. 5.Nikoh mustahkamligiga ishonch. 6.Oilada bo'sh vaqt ni qiziqarli o'tkazish. 7.O'ziga yoqqan ish bilan ta'minlanganlik. 8.Ma'lumotning mosligi. 9.Ish joyining qulayligi. 10.Yaxshi do'stlarning mavjudligi. 11.Er-xotinning erkinligi.

Ularning tadqiqot tahlillariga ko'ra, qaysi bir oilada ana shunday imkoniyatlar mavjud bo'lsa, u oilani baxtli oila deyish mumkin, uning a'zolari esa baxtiyor va farovon turmush kechirayotganliklaridan darak beradi (74; 108-109).

Ularning tadqiqot tahlillariga ko'ra, yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilada baxtli va farovon turmush vujudga kelishi uchun yuqorida keltirilgan shart-sharoitlar o'z ahamiyatiga ko'ra er bilan xotin uchun bir xil emas. Masalan, "Er-xotinning bir-birini tushunishi", "alovida uy-joyning mavjudligi", "moddiy yaxshi ta'minlanganlik", "farzandlar" va "qiziqarli ish" ahamiyatiga ko'ra, erda boshqacha, xotinda esa boshqacha baholangan. Er birinchi va ikkinchi o'ringa "alovida uy-joy bilan ta'minlanganlik" va "moddiy yaxshi ta'minlanganlikni", keyin boshqalarini qo'ysa, xotin esa birinchi va ikkinchi o'ringa "er-xotinning o'zaro bir-birini tushunish", "farzandlar" va so'ngra esa "alovida uy-joy", "moddiy yaxshi ta'minlanganlik" hamda "qiziqarli ish"ni qo'yadi. Bundan ko'rinish turibdiki, baxtli va farovon oila mazmunini ta'minlashning eng muhim tomoni hayot va faoliyatning zarur shart-sharoitlari va bolalar oila ittifoqi barqarorligining muhim mazmun-mohiyatini tashkil etadi.





S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurbanlarida oila-nikoh munosabatlardan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shuning uchun yoshlar o'sib ulg'ayadigan va o'qish joylarida ularni oilaviy hayotga, turmushga tayyorlash, ularda baxtli oila va farovon turmushni ta'minlaydigan zarur sifat va fazilatlarni shakllantirish, ularni bo'lg'usi oila to'g'risidagi romantik, shirin xayollardan, har xil chalg'ishlardan qutqarish bilan bog'liq tarbiyaviy shart-sharoitlarni yaratish to'g'risidagi qimmatli maslahatlarni ilgari suradi.

Xorijiy mamlakatlarda shu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarida baxtli oila qurishlari uchun ularda ikkita muhim jihat shakllangan (ular egallagan) bo'lishi shart. Birinchisi, g'oyaviy yetukligi (iqtisodiy ta'minlanganlikka nisbatan ham), ikkinchisi, o'zaro munosabat va muloqot madaniyati tarkib topgan bo'lishi zarur. Shu bilan bir qatorda oila qurayotgan yoshlarda yana: o'zini o'zi anglab o'zidagi qusurlarni qisqartirishga intilish, voqeа va hodisalarga o'zgalar nazari bilan qarash, muomalada yuqori madaniyatlichkeit, boshqalarni xohish va qarashlari bilan hisoblashish, sevgini ulug'lash, bir-biriga barqaror ishonch, bir-birini tushunishning yuqoriligi, bir-biriga hurmat va sadoqat kabi fazilatlar ham mujassamlashuvi kerak.

Oilaviy munosabatlarni o'rganish sohasida estoniyalik olimlar E.Tiyd va V.Ukolovalarning olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ular oiladagi er-xotin o'zaro munosabatlari xarakteriga qarab uning modellarini ishlab chiqadilar. Ularning fikricha, hozirgi jamiyatda ko'proq oilaning 2 ta modeli: An'anaviy (asimetrik) oila modeli va zamonaviy (simmetrik) oila modeli uchraydi. An'anaviy (asimetrik) oilada er so'zsiz oilaning iqtisodiy ta'minotchisi va uning boshlig'i sanaladi. Oiladagi ittifoq mavqeini u belgilaydi. Oila hayotiga xos tashkiliy va boshqa muhim muammolar yechimini u belgilaydi. Shu bois, er oiladagi boshqa tashvishlardan ozod qilinadi. Ayol esa an'anaviy oilalarda uncha ko'p daromad keltirmaydi yoki nisbatan oz daromad keltiradi. Uning uchun eng muhimi farzand ko'rish (tug'ish) va oila xo'jaligini namunali yuritish, bolalarni nazorat qilish va ularning kamoloti bilan shug'ullanishdir. Shunga ko'ra, oila yuritish javobgarligi ko'p jihatdan unga bog'liq bo'lgani uchun undagi mikro muhitni yaratish va shakllantirish tashvishi, asosan, uning majburiyatiga kiradi.

Zamonaviy (simmetrik) oilada er-xotin o'zaro munosabatlari an'anaviy oiladagidan farqli o'laroq (yoki bu oila egalitar (frantsuzcha - tenglik) oila ham deyiladi) undagi barcha rollar xoh u iqtisodiy, xoh u tarbiyaviy bo'lsin hammasi er-xotinning hamkorligida, birligida amalga oshiriladi. Ular oila xo'jaligini birga yuritadilar, uning masalalari va muammolarini birga hal qiladilar hattoki, to tarbiyaviy masalalargacha.

Estoniyalik olimlar E.Tiyt va V.Ukolovalarning ko'rsatishicha, oilaning mustahkamligi, undagi munosabatlarning aniq maqsadlarga qaratilganligi va



yo'naltirilganligi bilan ham belgilanadi. Ular oilaviy munosabatlar maqsadini ko'proq 3 yo'nalishda bo'lishini farqlaydilar. Oilaviy munosabatlar barqaror bo'ladi, qachonki:

1.Maqsad, bolalar tarbiyasi bilan bog'langan bo'lsa;

2.Maqsad, er-xotinning shaxs sifatida yanada rivojlanib borishini asoslasa;

3.Maqsad, oila uchun zaruriy narsalarni, uyni shinam va orastaligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa .

Ko'rinish turibdiki, oila barqarorligi-oila a'zolarining o'zaro hurmatga, sevgi-muhabbatga, javobgarlik - burch hissiga va er-xotinning psixologik va jinsiy o'zaro mosligiga asoslangan juda murakkab, ko'p qirrali va ko'p darajali munosabatlari natijasidan iboratdir.

Oila barqarorligi oilaning yagona va butunligini saqlaydi. Afsuski, oila barqarorligi XX asrning 80-90 yillariga kelib pasaya boshlagan. Buning asosiy sabablari oila buzilishlarining keskin oshishi, bolalarni tug'ilish sonining kamayishi, nikohsiz oilalarning ko'payishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, hozirgi yoshlarga oila buzilishining muhim sabablarini tushuntirish bilan birga oila beqarorligiga olib keluvchi juda murakkab omillar ta'sirini ham dalillab borish zarur.

Aksariyat tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oila buzilishining eng muhim sabablari: er-xotinning bir-biriga nisbatan ishonchining yo'qolishi, hissiyotning (sevgi-muhabbatning) susayishi, xarakter xususiyatlarning mos kelmasligi, er-xotindan birining bola ko'rishga layoqati yo'qligi yoki jinsiy qoniqmaslik holatlaridan iboratdir. Bunday natijalarni uzoq va yaqin chet el psixologlari olib borgan tadqiqotlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Oilada shaxslararo munosabatlar madaniyatining shakllanganligi oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi shuki, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pchilik psixoglarning fikriga ko'ra, oilaviy baxt bo'lishi uchun nizoli oilalarda yetarlicha psixologik shart-sharoitlar majmuasi mavjud emas (oilada ijobiy barqaror psixologik muhitni ta'minlaydigan er-xotin munosabatlariga xos sifat va fazilatlar yetarli shakllanmaganligidan dalolat beradi). Ularning fikricha, oilada yetarli psixologik shart-sharoitlar kompleksini:

1. Normal (do'stona) ziddiyatsiz munosabat. 2. Ishonch va empatiya. 3. Bir-birini tushunish. 4. Normal (intim) jinsiy hayot. 5. Uy-joyning bo'lishi tashkil etadi.

Rossiyada o'tgan asrning 80-90- yillarida oila muammolari bilan shug'ullangan psixolog olimlar (S.V.Kovalyov, N.N.Obozov) ning bahosiga ko'ra, baxtsiz oilalarni uch





toifaga kiritish mumkin. Ular shartli ravishda: janjalli, inqirozli, muammoli oila toifalariga bo'linadilar.

Janjalli oilada er-xotin o'rtasida parda (sfera) bo'lib, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, baholashlari va xohishlari o'rtasida doimo to'qnashuvlar kelib chiqadi va u kuchli emotsiyonal holat ko'rinishida uzoq saqlanadi.

Inqirozli oilada er-xotinning qiziqish va ehtiyojlari asosan qat'iy xarakterga ega bo'lib, bu holat oilaviy hayot sohasining muhim tomonlarini egallaydi.

Muammoli oilada er-xotin o'rtasida sodir bo'ladigan qarama-qarshiliklar yoki ziddiyatlar asosan unda qiyin hayotiy vaziyatlar, qiyinchiliklar (masalan uy-joyning yo'qligi, og'ir va uzoq muddatli kasallik) yuz bergan holatlarda yuzaga keladi.

Ana shunday oilalardagi er-xotinlar ulardag'i ijtimoiy-psixologik muhit va o'zaro hurmatga, yordamga tayangan o'zaro munosabatlardan qoniqqandagina turmushlari mustahkam bo'lishi mumkin (Kovalev).

Oilaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi muhim sabablarni o'rgangan S.I.Golod (1981) oilaviy qiyinchiliklarni quyidagi ko'rinishlarda: -uy xo'jaligini tashkil etish; qarindoshlar bilan munosabatning og'irligi; bolalar va uning tarbiyasi; kommunikatsiyadagi qiyinchiliklar, moliyaviy qiynalishlar, ichimlikka berilish, qiziqish va e'tiqodlarning turli yo'nalishdaligi, rashk va qizg'anish, jinsiy nomutanosibliklarda namoyon bo'lishini qayd etadi.

Ye.Burgess, P.Vollin, L.Terman va M.Odema, G.Rolandlar bir qator tajribalarga tayanib er-xotinlikdan qoniqishda sheriklarga xos sifatlarning quyidagi turlarini qayd etadilar.

Baxtli nikohdag'i sheriklarni tavsiflovchi sifatlarga:

1. Emotsional barqarorlik. 2. O'zga kishilar bilan kelisha olishlik. 3. Xushmuomalalik. 4. Ochiqlik, ishonch. 5. Emotsional muhtojsizlik. 6. Yon beruvchanlik kiradi.

Baxtsiz nikohni tavsiflovchi sifatlar:

1. Emotsional beqarorlik (nevrotizm). 2. O'zga kishilarga tanqidiy munosabat. 3. Hukmronlikka intilish. 4. Berklik, tundlik. 5. Shubhalanuvchanlik. 6. Emotsional berklikdir.

Yuqorida mualliflarning izohlashicha, nikohdan qoniqqanlikni belgilovchi 2 ta asosiy o'lcham (mezon)i bor ekan. Ushbu ikkala o'zaro aloqadorlikdagi ko'rsatkichlar - emotsiyonal soha va ijtimoiy muhitga yo'nalganlikdan iboratdir.

G.Roland esa o'z tadqiqotlarida oiladagi shaxslararo munosabatdan qoniqish uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko'rsatgan:

1. Muloqotmandlik. 2. Oilada yuqori darajadagi o'zaro tushunish.



3. Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi. 4. Emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi va ishonch. 5. "Uy" ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash (Roland 98).

B.Faber esa oiladagi kommunikativ qadriyatlar yo'naliشining yuqori me'yorda bo'lishi baxtni belgilovchi baho deb hisoblaydi.

A.Kempinskiy bo'lsa er-xotin hamjihatligi to'g'risidagi qiziqarli (taajjubli) kontseptsiyani taqdim etdi. Muallif bu kontseptsiyani taqdim etishda (tayyorlashda) nevrotik oilalarga oid ma'lumotlarga tayanadi. Uning qarashlariga ko'ra, er-xotin o'rtaSIDagi mutanosiblik uchun muhim (chuqur) ahamiyat kasb etuvchi shaxs xislatlariga qaraganda, shunchaki yuzaki (ikkinchi darajali) fazilatlar muhimdir. Ikkinchi darajali shaxs sifatlari situativ xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Ular er-xotin juftligining yaxlit tuzilma sifatida mos kelishidagi vazifalarini muvofiqlashtiradi.

N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o'rtaSIDagi ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyaning tenglashtirilishidandir deb tushuntiradi. Uning fikricha, oldinlari erving ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi uning oiladagi boliqligini belgilagan bo'lsa, u oilani buzilishdan saqlashning bitta vositasi edi, xolos. Hozirgi kunda er bilan xotinning ijtimoiy-iqtisodiy tengligi ularning funktsional majburiyatlarini taqsimlashda yangicha yondashishni talab qiladi. Funktsiyalarni taqsimlashdagi asos sifatida er bilan xotinning o'zaro ta'sirlashuvining psixologik xususiyatlarini ochish maqsadga muvofiq. Uning fikricha, ijtimoiy-tarixiy tajriba va keyingi tajribalar hozirgi avlodning funktsiyalarini psixologik taqsimlash jarayonini qiynalmasdan va "asoratsiz" bo'lishini kafolatlay olmayapti.

V.E.Semenov, Yu.T.Timofeyevlarning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalardagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotdagi natijalarga ko'ra, ishchi ayollar uchun eng ahamiyatli hayotiy qadriyatlar "oilaviy baxt", "yaxshi sog'lomlik", "sevimli ish" va "sof vijdon" dan iborat ekan. Erkak ishchilarda esa qadriyatlarning eng asosiysini "sevimli mashg'ulot", so'ogra "oilaviy baxt" tashkil qilishi aniqlangan.

Sotsiologik yondashuvga muvofiq, er-xotin munosabatlarining muvaffaqiyat ko'rsatkichi nikohning xavfsizligi, ya'ni ajralishning yo'qligi. Bu xarakteristika nikoh barqarorligi deb nomlanadi va demografik, sotsiologik va boshqa tadqiqotlar turli xil usullarda keng qo'llaniladi.

T.G.Pospelova va T.M.Trapeznikova oila barqarorligiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ajratib ko'rsatishadi.

Mualliflar ob'ektiv omillarga quyidagilarni kiritadilar:

1.Oila yashayotgan butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning umumiy beqarorlashuvi.

2. Oila funksiyalari bajarilishi uchun davlat tuzilmalari xususiyatlari, uning omon qolishi uchun minimal sharoit yaratmaydi.

3. Oilaviy byudjet darajasi minimal yashash sharoitiga mos kelmasligi.

4. Uy-joy sharoitlarini yaxshilash muammolari.

5. Ishsizlik (ayniqsa ayollar uchun).

T. G.Pospelova va T.M.Tropeznikova fikriga ko'ra, oila barqarorligining sub'ektiv omillari deb quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Oilaviy psixologik kichik ijtimoiy guruh sifatida er-xotin, farzandlar, ota-onalar o'rta sidagi o'zaro munosabatlarning yangi modelini shakllantirdi. Aqniqsa ayollar ongida katta transformatsiya sodir sodir bo'ldi.

2. Oiladagi erkak va ayolning rolli xatti-harakatlari, ehtiyoj va qiziqishlari yaqinlashdi, "o'rtacha" uslubga ega bo'ldi.

T.G.Pospelova va T.M.Tropeznikova oilaviy hayotga "barqarorlik" shaxslararo munosabatlar va yoshlarning nikohga tayyorlik darajasiga bog'liq. Shuningdek, "nikohga tayyorlik shaxsning psixologik ustakovkasi – ijobiy hissiy munosabatlar, nikoh qadriyatları" sifatida tushuniladi.

Xulosa. Shu o'rinda oiladagi maishiy masalalar ishlab chiqarish jarayonidan tashqaridagi omil bo'lsa ham, undagi psixologik muhitni tartibga solishda ishtirok qilishini ta'kidlash joizdir.

Ko'rib o'tganimizdek, chet el psixologlari tomonidan oila muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ancha salmoqli va keng qamrovlidir. Shunday bo'lsa-da, mazkur ilmiy izlanishlar natijalari, ulardagi ilmiy tavsiya va xulosalar ma'lum darajada cheklanganlik xarakteriga egadir. Tadqiqot natijalarining cheklanganlik xarakterda ekanligi har bir xalqda oilaviy turmush muammolari milliy, madaniy, an'anaviy va hududiy xususiyatlar mayjudligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Chunki, oilaviy turmush tarzi va er-xotin munosabatlarining milliy, madaniy va mintaqaviy o'ziga xosligi boshqa millatlarnikiga u yoki bu darajada to'g'ri kelavermaydi. Ya'ni boshqa millat vakillarida oila muammolarini hal qilish bilan bog'liq o'tkazilgan tadqiqot natijalarini o'zbek milliy-madaniy muhitida samarali qo'llash mumkin emas. Shu bois, biz ushbu tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarga yuqori baho bergan holda, bu ilmiy dalillarni o'zbek oilalari uchun ham to'la taalluqli deya olmaymiz.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Т.Н. "Социально-психологические проблемы стабильности и успешности брачно-семейных отношений" / 12.2009-Санкт-Петербург.

2. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o'zaro



munosabatlariniig roli. / O'zbek oilasining etnopsixologik muammo-lari. Resp. Ilm. amal. anj. ma'ruz. qisqacha bayoni. - T., 1993. -44-45 b.

3. Ковалев С.В. Психология современной семьи.-М.: Просвещение 1998.-210 с.

4. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений.-Киев: из-во Ун-та. 1990.-192 с.

5. Орлов А.Б. Человекоцентрированное консультирование как область практики и учебная дисциплина: Триологический подход // Развивающая психология – основа гуманизация образования. –М., 1998

6. Qodirov O.S. "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi" // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.

7. Qodirov O., Kuchiboyev Sh, Shukrullayev H. Oilalarda deviant xulq-atvor bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etish shart-sharoitlari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi 1 (1), 202-205.

8. Safarovich Q.O. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY.Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (5), 454-462

9. Entone Giddens. Sotsiologiya. -T.:Sharq. 2002. -848 b.

10. Голод С.И. Современная семья: плюрализм моделей // Социологический журнал. — 2015. — № 3–4. — С. 99–108.

